

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI
KENGASHINING YIG'ILISH
BAYONNOMASI

2025-yil 02.09.

№ 1

Jizzax shahri

Qatnashdilar:

Kengash raisi

A. Usmankulov

Kengash kotibi

E.Urishbayev

Kengash a'zolari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hay'at qarorlari va buyruqlari, institut Kengashi qarorlari va rektor buyruqlarining ijrosi haqida. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring" bo'limi boshlig'i I.Karmisheva.

2. Institutda 2024-2025-o'quv yilida amalga oshirilgan ishlar natijalari va yangi 2025-2026-o'quv yilida bajariladigan ustuvor vazifalar to'g'risida

3. Turli masalalar.

3.1. 2025-2026 o'quv yili uchun institut Kengashi ish rejasini hamda Kengash a'zolari tarkibini tasdiqlash to'g'risida.

3.2. 2025-2026 o'quv yili uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining 1-kurs o'quv rejalari, o'quv jarayoni grafiklarini va kafedralar bo'yicha o'quv yuklamalarini tasdiqlash hamda 3 yildan ortiq ilmiy-pedagogik ish staji mavjud, biroq ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega bo'lmagan professor-o'qituvchilarga 250 soatgacha ma'ruza o'qish uchun ruxsat berish to'g'risida. O'quv ishlari bo'yicha prorektor M.Ochilov

3.3. "**Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun**" shiori ostida O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 34 yilligini munosib kutib olish chora-tadbirlari to'g'risida. Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor S.Eshbekova

3.4. Institutda yoshlar bilan ishlash, ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha 2025-2026 o'quv yili ish rejasini tasdiqlash to'g'risida. Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor S.Eshbekova

3.5. Institut talabalar turar joyida istiqomat qiladigan talabalarga "**Talabalar turar joyi**" uchun to'lov miqdorini tayinlash to'g'risida.

3.6. Institut Transport vositalari muhandisligi kafedrası professori I.B.Askarov tomonidan tayyorlangan "Kreativ yondashuv asosida talabalarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasi" nomli **monografiyani** tasdiqlash to'g'risida.

3.7. Institut “Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish texnologiyasi” kafedrası assistenti B.N.Sharopovning **“Paxtani havodan ajratib olishda aerodinamik qarshilikni va paxta shikastlanishini kamaytiruvchi takomillashtirilgan intensiv separator konstruksiyasini asoslash”** nomli loyiha muhokamasi to‘g‘risida.

3.8. Institut “Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish texnologiyasi” kafedrası professor-o‘qituvchilari I.Abbazov va N.Matchonovalarning **“Binolarda sodir bo‘layotgan baxtsiz hodisalarni oldini oladigan, olovbardosh xususiyatli issiqlik izolyatsion shnur olish”** mavzusidagi amaliy loyiha muhokamasi to‘g‘risida.

3.9. Institutda Eron Islom Respublikasi Xo‘ja Nosiriddin Tusi Texnologiya Universiteti hamda “Hamta Tadbir” korxonasi bilan imzolangan trilateral shartnomaga muvofiq, Jizzax politexnika instituti Kibersport fakulteti Radioelektronika kafedrası tarkibida “Jizzax Robotlar laboratoriyasi” (“Jizzakh Aerial Robotics Lab”)ni tashkil etish to‘g‘risida

3.10. Institut Arxitekturaviy loyihalash kafedrası qoshida “Ijodiyot” o‘quv-ilmiy markazini tashkil etish va markazning **“NIZOMI”**ni tasdiqlash to‘g‘risida.

3.11. Institut 2025-yil I chorak uchun mustaqil izlanuvchilikka qabul yakuni to‘g‘risida.

3.13. Institut Arxitekturaviy loyihalash kafedrası professori M.A.Aynaqulov tomonidan tayyorlangan “Klaster doirasida xo‘jaliklararo kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari” nomli **monografiyani** tasdiqlash to‘g‘risida.

3.14. Institut Ekologiya va mehnat muhofazasi kafedrası mudiri Tirkasheva Muqaddas Baxromovna tomonidan tayyorlangan “Устойчивое использование природных ресурсов и управление арчовыми лесами в горных районах западного памир-алая, важных для глобального значимого биоразнообразия” nomli **monografiyani** tasdiqlash to‘g‘risida.

3.15. Institut Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish kafedrası texnika fanlari falsafa doktori (PhD), Ulug‘muradov Xamroz rahbarligidagi “Sifatli tola olish maqsadida paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasining konstruksiyasini takomillashtirish” mavzusidagi loyihasini 2 oylik hisobotini taqdim etish muhokamasi to‘g‘risida.

3.16. Institut Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish kafedrası texnika fanlari falsafa doktori (PhD), Alimov Orif rahbarligidagi “Atrof-muhitni asrash maqsadida havoni paxta changlari va tolali chiqindilardan tozalash qurilmasini yaratish” mavzusidagi loyihasini 2 oylik hisobotini taqdim etish muhokamasi to‘g‘risida.

3.17. Institut Kompyuter va dasturiy injiniring kafedrası professor v.b. J.R.Axmedov tomonidan tayyorlangan “Axborotlashtirilgan ta’lim muhitida bo‘lajak

muhandislarni kasbiy rivojlantirishning metodik ta'minotini takomillashtirish" nomli **monografiyani** tasdiqlash to'g'risida

3.18. Institutda 2025-2026-o'quv yilida talabalar sonining kamayganligi hamda o'quv yuklamalarining kamayganligini inobatga olib institut tuzilmasiga tegishli o'zgartirish kiritish to'g'risida

3.19. Institut Energetika va elektr texnologiyasi kafedrası katta o'qituvchisi t.f.n. Nazarov Furqat tomonidan tayyorlangan "Датчики трехфазного тока для контроля и управления источниками реактивной мощности" nomli **monografiyani** tasdiqlash to'g'risida.

3.20. Institut Muhandislik kommunikatsiyalari kafedrası dotsenti N.U.Toshmatov va hammualliflar O.B.Максимчук, С.Б.Болдыревой, В.А.Гец tomonidan tayyorlangan "Развитие малого и среднего предпринимательства в условиях нестабильной внешней среды" nomli **monografiyani** tasdiqlash to'g'risida.

3.21. Institut Energetika va elektr texnologiyasi kafedrası o'qituvchisi Qurbonov Abror tomonidan tayyorlangan "Bo'lajak muhandis-elektriklarni tayyorlash jarayonida intellektual kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi" nomli **monografiyani** tasdiqlash to'g'risida.

3.22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 10-fevraldagi 20-sonli qarori asosida institut pedagog xodimlari faoliyatini o'rganish Mezonlarini tasdiqlash to'g'risida

ESHITILDI :

Kun tartibidagi 1-masala yuzasidan institut Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i I.Karmisheva axborot berdi. Unda quyidagilar aytib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis hujjatlari, hukumat qarorlari va farmoyishlari, Prezident Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi, boshqa vazirlik va idoralardan kelgan hujjatlarning bajarilishi to'g'risida.

Institutda vazirlikning INFOKS pochta va e-xat orqali kelgan xujjatlar "Ijro.gov.uz"(edo.ijro.uz) elektron tizimiga kiritilib nazoratga olinmoqda.

**Institutda davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik birlashmalarining qonunchilik hujjatlari hamda topshiriqlar ijrosini ta’minlashi borasidagi
MA’LUMOTLAR**

Jurnallar	Xujjatlar soni	Topshiriqlar soni	Shundan					Ma'lumot uchun
			Ijro uchun	Shundan				
				Bajarilmoqda	Bajarilmagan	Muddatdan keyin bajarilgan	Bajarilgan	
OʻzR VMQ , VMF, yigʻilishi va uning rayosat bayonnomalari	1	3	3	0	0	0	3	0
Yuqori turuvchi va boshqa tashkilotlardan keluvchi hujjatlar	171	189	78	39	0	0	39	111
Xizmat doirasida foydalanish uchun	223	15	1	0	0	0	1	14
Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari	4	4	4	1	0	0	3	0
Jami	399	211	86	40	0	0	46	125

INSTITUTGA 2025-YIL AVGUST OYI DAVOMIDA JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARDAN KELIB TUSHGAN MUROJAATLAR TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

Jami kelib tushgan masalalar	Jami	4
	Yangi	4
	Jarayonda	0
	Yopilgan	4
	Javobi kiritilgan, o‘rganishda	0
Javobi kiritilgan, o‘rganishda	Administrasiyada	0
	Yuqori tashkilotlarda	0
	Joriy tashkilotda	0
	Quyi tashkilotlarda	0

So'rovlar	
Boshqa tashkilotlarga jo'natish so'rovlari	0
Muddat o'zgartirish so'rovlari	0
Natijasi tekshirilmoqda	0
Tasnif o'zgartirish so'rovlari	0
Cheklovni o'zgartirish so'rovlari	0
Muddati yaqinlar	0
Bugun	0
Ertaga	0
Muddati tugagan	
Muddati buzilgan	0
30 kunlik muddat buzilgan	0
Muddati buzib yopilgan	0
30 kunlik muddat buzib yopilgan	0
Takroriyliqi	
Takroriy	0
Dublikat	0

Kun tartibidagi masalani o'rganib, Kengash

QAROR QILADI:

1. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i I.Karmishevaning 2025 – yilning avgust oyida institutga kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis hujjatlari, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi boshqa vazirlik va idoralardan kelgan hujjatlarning bajarilishi hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo' yicha kelgan xatlar holati to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. **Institut soha prorektorlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari hamda bo'lim boshliqlariga:** Kelib tushgan hamda sentabr oyida bajarilishi lozim bo'lgan "edo.gov.uz" tizimidagi topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ijrosini ta'minlanishini nazoratga olish vazifalari yuklatilsin. **Muddat: 05.09.2025-yil.**

3. Institut soha prorektorlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari hamda bo'lim boshliqlariga: Murojaatlarga e'tiborli bo'lishlari, ijrosini sifatli ta'minlashlari shuningdek, og'zaki murojaatlar bo'yicha o'rnatilgan tartibda qabul grafiklariga asosan qabul qilish va murojaatlarni ro'yxatga olish daftarlarini talab darajasida yuritilishiga qat'iy e'tibor qaratish. ***Muddat: doimiy.***

4. Institut soha prorektorlariga:

- Tasdiqlangan grafik asosida sayyor va shaxsiy qabullarni tashkil etish vazifalari yuklatilsin. ***Muddat: doimiy.***

Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish institut Kengash raisi A.Usmankulov zimmasida qoldirilsin.

ESHITILDI :

Kun tartibidagi 2-masala yuzasidan institut rektori Kengash raisi A.Usmankulov so'z olib, Institutda 2024-2025-o'quv yilida amalga oshirilgan ishlar natijalari va yangi 2025-2026-o'quv yilida qo'yiladigan vazifalar to'g'risida hisobot berdi.

2024-2025-o'quv yili davomida o'quv ishlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi vazifalar bo'yicha

Institutda 6 ta fakultet va ularda 24 ta kafedra hamda 15 ta bo'limlar mavjud bo'lib, jumladan: 32 ta kunduzgi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, 23 ta sirtqi ta'lim yo'nalishlari, 20 ta magistratura mutaxassisliklari, shuningdek, 2+2 qo'shma ta'lim dasturi asosida 3 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

Asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar soni 420 nafarni tashkil etib, ilmiy salohiyat 37,4% dan 42% ga ko'tarildi.

2024-2025-o'quv yili institutimizda 11 nafar fan doktori (2,7%), 165 nafar fan nomzodi (39,3%), 64 nafar katta o'qituvchi (15,2%) va 180 nafar (42,8) assistentlar faoliyat olib bordi.

2025-2026-o'quv yilida institutda kunduzgiga 6 ta yangi Marketing, Biotexnologiya, Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, Sanoat muhandisligi va menejment, Kommunal infratuzulmalarni tashkil etish, Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda Artof muhit muhofazasi, Kelajak akkumulyator ishlab chiqarish muxandisligi va transport logistikasi magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qabuli yo'lga qo'yildi.

BYD Uzbekistan Factory qo'shma korxonasi bilan hamkorlikda ilg'or muhandislik maktabida sentyabr oyidan Transport muxandisligi fakultetining 30 nafar talabalarining maxsus dastur asosida o'qitish yo'lga qo'yiladi.

Bundan tashqari 2025-2026-o'quv yilidan boshlab institutda kechki va masofaviy ta'lim yo'lga qo'yilib, kechkida 16 ta hamda masofaviyda 4 ta ta'lim yo'nalishlariga qabul bo'lib o'tdi.

Xitoy xalq respublikasining oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik natijasida 2025-2026-o'quv yilidan Mexanika muhandisligi, Energetika muhandisligi, Yengil sanoat muhandisligi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha 2+2 dasturi asosida talabalar qabul qilinmoqda. Xozirgi vaqtgacha 75 ta o'ringa 108 nafar abiturent 1 bosqich imtixonlarini topshirib, keyingi bosqichga tavsiya qilindi.

Institutda 2025/2026-o'quv yilida tayyorlanayotgan ta'lim yo'nalishlari hamda mutaxassisliklar bo'yicha o'quv kurslari va ta'lim shakllari kesimida 339 ta o'quv rejalar ishlab chiqildi. Xususan bakalavrat ta'lim yo'nalishlari kesimida 106 ta magistratura mutaxassisliklarida 63 ta, sirtqi ta'lim shaklida 89 ta, kechki ta'lim shaklida 25 ta, masofaviy ta'lim shaklida 4 ta o'quv rejalar ishlab chiqildi va o'quv yuklamalar shakllantirish maqsadida kafedralarga yetkazildi.

O'quv rejalar asosida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining asosiy va majburiy fanlar bo'yicha sillabuslari ishlab chiqildi.

2024-2025-o'quv yilida barcha o'quv-me'yoriy hujjatlar QR kodda tasdiqlash maqsadida platforma ishga tushirilgan bo'lib, o'tgan yillar davomida takomillashtirish natijasida 2024-2025-o'quv yilida o'quv-me'yoriy hujjatlar elektron platformasi orqali 1684 ta o'quv dastur, 2050 ta sillabus, 446 ta ma'ruza matnlari, uslubiy ko'rsatmalar jumladan amaliy-tajriba mashg'ulotlari, kurs ishi va kurs loyihalari, hisob grafik ishlari hamda mustaqil ta'lim ishlarini bajarish uchun jami 2260 ta uslubiy ko'rsatmalar yuklangan. Buning natijasida qog'ozbozlik hamda ortiqcha vaqt sarfini qisqartirishga erishilgan.

Joriy o'quv yilida ham platforma orqali tasdiqlash amalga oshirilmoqda.

2024-2025-o'quv yilida yangilangan ta'lim klassifikatoriga muvofiq o'quv adabiyotlarni tayyorlash va chop etish bo'yicha ishlab chiqilgan nashr rejasiga jami 219 nomdagi o'quv adabiyotlar kiritilgan bo'lib, shundan 98 tasi darslik, 119 tasi esa o'quv qo'llanma va 2 tasi esa izohli lug'atlardir. 2025-yilning shu davrigacha Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug'i bilan 61 nomdagi adabiyotlar, shundan 36 tasi darslik, 25 tasi o'quv qo'llanma o'quv adabiyotlariga nashr guvohnomalari berilgan. Shu bilan birga 13 ta darslik va 22 ta o'quv qo'llanma chop etish guvohnomasini olish uchun muvofiqlashtirilgan kengashga topshirilgan.

Axborot resurs markazi fondiga professor-o'qituvchilar tomonidan 266 nomdagi 2410 nusxada o'quv adabiyotlari topshirilgan.

2024-2025-o'quv yili mobaynida 104 nafar professor-o'qituvchilar malaka oshirishdi.

2025-yilning avgust oyida Transport vositalari muxandisligi kafedrasidan **25** nafar, Transport logistikasi kafedrasida **10** nafar, Radioelektronika kafedrasidan **8** nafar

professor-o'qituvchilari "BYD Uzbekistan factory" qo'shma korxonasiga, iyul-avgust oylarida Qozog'iston Respublikasidagi oliy ta'lim muassalarida 8 nafar, Rossiya Federatsiyasi oliy ta'lim muassalarida 4 nafar, Turkiya Respublikasining oliy ta'lim muassasalarida 2 nafar va Xitoy respublikasida 2 nafar professor o'qituvchilar, jami 59 nafar professor-o'qituvchilar ishlab chiqarish korxonalari va oliy ta'lim muassasalarida qisqa muddatli stajirovkalarini amalga oshirdi.

2024-2025-o'quv yili yakuniga qadar turli xalqaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilib 78 ta memorandumlar imzolandi. Natijada, professor-o'qituvchilardan 83 nafari xorijda malaka oshirgan bo'lsa, 36 nafar xorij professor-o'qituvchilari o'quv jarayoniga jalb qilindi.

Tarmoq + korxona+ oliygoh zanjirini tashkil etildi. Jizzax politexnika institutiga hamkor va homiy sifatida "BYD Uzbekistan factory" MCHJ QK, "ADM Jizzakh" qorxonasi, "BASALT" sanoat klasteri, "Jizzax tekstil" MCHJ, Artel Electronics va Viloyat elektr tarmoqlari korxonlari biriktildi. Bu korxonalar bilan hamkorlik shartnomalari tuzildi.

2025-yilda "BYD Uzbekistan factory" MCHJ qo'shma korxonasi xomiyligida "Ilg'or muxandislik maktabi" tashkil etildi.

Shuningdek, ADM Jizzakh", "BASALT" sanoat klasteri, "Sharof Rashidov nomidagi to'qimachilik kombinati" MCHJ, Artel Electronics va Viloyat elektr tarmoqlari korxonlari bilan dual ta'lim tizimi tashkil etildi.

2024-2025-o'quv yilida 2072 nafar bakalavr va 18 nafar magistrlar o'qishni muvofaqqiyatli yakunladi.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, 2025-yil 14-fevralda qabul qilingan PQ-61-sonli Prezident qarori asosida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlash, shu jumladan, startap va innovatsion loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, kasb-hunar, raqamli texnologiyalar hamda xorijiy tillarni chuqur egallashi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, yoshlar bandligini ta'minlash maqsadida 2025-yil bitiruvchilaridan kredit olish istagini bildirgan 121 nafar bitiruvchi kurs talabalari ro'yhatga olingan bo'lib, shundan, Jizzax viloyat "O'zmilliybank" AJ tomonidan "Kelajakka qadam" dasturi doirasida 30 nafar bitiruvchi talabalarga 2,260 mlrd. so'm kredit mablag'lari ajratildi.

"BASALT" sanoat klasteri, "BYD Uzbekistan factory" MCHJ qo'shma korxonasi, ADM Jizzakh" qo'shma korxonasi, Viloyat elektr tarmoqlari korxonasi, "Jizzax tekstil" MCHJ korxonalari 2024-2025-o'quv yilida bitirgan bitiruvchilarning 200 nafaridan ortig'ini ishga qabul qildi.

Artel Electronics kompaniyasi 2024-2025-o'quv yili bitiruvchilarining 63 nafarini ishga qabul qilib Toshkentga qayta o'qish va tayyorlash uchun 2 oylik stajirovkaga yubordi.

Vazirlar mahkamasining 149 sonli qaroriga muvofiq institut tahsil olgan bakalavriat va magistratura talabalarining GPA bali 3,5 bo'lgan 475 nafar talabalarning xujjatlari o'rganib chiqildi va grand o'rinlari qayta taqsimlandi.

Institutda faoliyat ko'rsatyotgan 24 ta kafedralarning 8 oy davomida milliy reyting bo'yicha ma'lumoti quyidagicha: eng yuqori o'rinda 94,4 bal Tabiiy tola va matoga ishlov berish, 80,2 bal Transport logistikasi, 75 bal Yo'l muxandisligi, 73 bal O'zbek va xorijiy tillar, 72 ball Ijtimoiy fanlar, 72 bal Ekologiya va mehnat muhofazasi, 71 bal Iqtisodiyot va menejment, 70 bal Radioelektronika, 69 Qurilish materiallari va konstruksiyasi kafedralari bo'lgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar 35 bal Jismoniy tarbiya, 47 bal Transport vositalari muxandisligi, 49 bal Umumtexnika, 51 bal Metrologiya va standartlash, 51 bal To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi, 55 bal Qurilish muxandisligi, 59 bal Arxetikturaviy loyihalash, 64 bal Muxandislik kommunikatsiyalari, 64 bal Kimyoviy texnologiya kafedralarida kuzatildi.

Institut akademik litseyida iqtidorli yoshlarni saralab olish va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha yo'l xarita ishlab chiqildi. 2024-2025-o'quv yilida akademik litsey bitiruvchilarining OTMga o'qishga kirish ko'rsatkichlari 87% ni tashkil etmoqda. 2025-2026-o'quv yili akademik litseyga 208 o'ringa 1310 nafar o'quvchi xujjat topshirdi. Akademik litseyga 208 nafar o'quvchi imtixonlardan muvafaqiyatli o'tib o'qishga qabul qilindi.

Institut qoshidagi akademik litsey o'quvchilariga matematika, fizika, kimyo va ingliz tili unifikatsiya qilingan fanlardan institutning tajribali professor-o'qituvchilari dars olib bordi.

Institutga O'zbekiston Respublika Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158 farmoniga ko'ra Jizzax viloyatidagi 13 ta politexnikum biriktirildi. Biriktirilgan politexnikumlarga o'quv –uslubiy jihatdan yordam ko'rsatildi.

Shuningdek, institutga biriktirilgan Jizzax shahridagi 1-sonli politexnikumda Pearson dasturi asosida 4 ta Kompyuter grafikasi va dizayn operatori, Elektromantyorlik, Payvandlovchi, Qurilish ishlari ishchisi yo'nalishi bo'yicha o'quvchilarni qabul qilish boshlandi.

Vazirlikning 2025-yil 17-yanvardagi 18-son buyrug'i ijrosini ta'minlash uchun institut rektorining 2025-yil 21-yanvardagi 26 AF-son buyrug'i chiqarildi va institutga biriktirilgan 88 nafar kambag'al va kam ta'minlangan oilalarning bitiruvchi sinfdagi farzandlarini OTMga tayyorlash ishlariga mas'ul etib, 6 ta fakultet dekani belgilandi.

Institutga biriktirilgan 88 nafar o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan alohida-alohida suhbatlar olib borilib, o'quvchilarning kelgusida oliy ta'lim muassasalariga jalb etish borasida qiziqishlaridan kelib chiqilib, tanlagan ta'lim yo'nalishlariga mos ravishda fanlardan tayyorlov kurslarini tashkil etish yuzasidan kelishib olindi. Tayyorlov kurslari to'g'ridan-to'g'ri tuman markazlaridagi

texnikumlarda va olis manzildagi o'quvchilar uchun maktablarda tashkil etilishi belgilandi. Auditoriyalar zamonaviy jihozlangan bo'lib, barcha zaruriy jixozlar bilan ta'minlandi.

Tayyorlov kursiga fizika, ingliz tili, ona tili, biologiya, kimyo, matematika, tarix fanlaridan tajribali va malakali umum ta'lim fanlari o'qituvchilari saralab olinib, shartnoma asosida jalb etildi va joriy yilning 1-martidan boshlab o'z faoliyatini boshladi.

“Registrator ofisi” tomonidan amalga oshirilgan ishlar va kelgusi rejalar

Amalga oshirilgan ishlar

HEMIS axborot tizimida 2024/2025-o'quv yili boshidan beri tizimga joylashtirilgan fan resurlarni, fan topshiriqlar haqidagi statistik ma'lumotlar olindi. Natijada 106 ta fanlarning o'qituvchilari tomonidan resurslar joylanmaganligi va 125 ta fanlarning o'qituvchilari fan topshiriqlari yuklamaganligi aniqlandi. Ushbu holatlar kafedralar hisobotlarida ma'lum qilindi.

HEMIS axborot tizimida 2024/2025-o'quv yilida jami 19 ta dars mashg'uloti o'tildi statusiga o'tkazilmagan. Shundan, Arxitekturaviy loyihalash kafedrasida 3 ta, Energetika va elektr texnologiyasi kafedrasida 2 ta, Ijtimoiy fanlar kafedrasida 1 ta, Iqtisodiyot va menejment kafedrasida 3 ta, Muhandislik kommunikatsiyalari kafedrasida 1 ta, Oliy matematika kafedrasida 4 ta, O'zbek va xorijiy tillar kafedrasida 2 ta, Transport logistikasi kafedrasida 5 ta, Transport vositalari muhandisligi kafedrasida 4 ta hamda Umumtexnika fanlari kafedrasida 6 ta dars mashg'ulotlari o'tildi statusiga o'tkazilmagan.

HEMIS axborot tizimida 1565 nafar talabaning 10067 ta fandan noaniq bo'lgan baholari fakultet dekanlari bilan hamkorlikda 1089 ta talabaning baholariga aniqlik kiritib tizim to'g'irlandi. Hozirgi kunda qolgan 476 nafar talabalarning tizimdagi kamchiliklarini bartaraf etish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

2025-yil 3-yanvargacha bo'lgan 841 nafar kunduzgi ta'limda, 911 nafar sirtqi ta'limda tahsil olayotgan fanlardan akademik qarzдор talabalar mavjudligi aniqlanib, Sirtqi ta'lim talabalariga bahorgi semestri davomida 8 kreditgacha bo'lgan qarzдорliklarini o'zlashtirish uchun imkoniyat berildi. Shuningdek, kunduzgi ta'lim talabalariga qarzдорliklarini bartaraf etish uchun mart oyida qayta o'qish o'tkazildi natijada jami **1112** nafar talaba fanlarni o'zlashtirdi.

Kelgusi rejalar

1. Talabalarning qoldirgan dars mashg'ulotlarini qayta o'zlashtirish uchun qulayliklar yaratish.

2. Talabalarning fanlardan qarzдорliklarini o'zlashtirishini semestr davomida tashkil etish.

3. Talabalarga qulaylik yaratish maqsadida masofaviy xizmat ko'rsatish platformasini yaratish hamda joriy etish.

4. Talabalarning dars mashg'ulotlarida qatnashish va o'qituvchilarning dars mashg'ulotlarini olib borishlarini monitoring qilib borish.

5. Bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanishida, uch tomonlama shartnomalar tuzish jarayonlarida amaliy yordam berish.

6. TTJlarga talabalarni joylashishi uchun bergan arizalarini o'z vaqtida ijrosini ta'minlash.

Institutda raqamlashtirish bo'yicha qilingan ishlar va tizimlar bo'yicha ma'lumot

2024-2025-yilda Jizzax politexnika institutida raqamlashtirish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Oliy ta'lim muassasalarida yagona raqamlashtirilgan o'quv axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan "HEMIS" tizimi doimiy ravishda uzluksiz ishlab turishi ta'minlanib kelinmoqda hamda berilgan topshiriqlar o'z vaqtida bajarib kelinmoqda. Shu bilan bir qatorda institutning

1. "JizPI axborot tizimlari" (<https://hnt.jizpi.uz/>).
2. "JizPIning elektron jurnal platformasi" (elektron jurnal) (<http://jurnal.jizpi.uz/>).
3. O'quv me'yoriy hujjatlarini raqamlashtirilgan nazorat qilish tizimi (<http://hnt.jizpi.uz>).
4. Institut talabalar turar joyiga onlayn ariza berish tizimi (<http://ttj.jizpi.uz/>).
5. Institut professor-o'qituvchilari samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash tizimi (<http://kpi.jizpi.uz>).
6. Institut talabalari uchun psixologik testlar olish tizimi.
7. Institut talabalari uchun o'qishini grantga o'tkazishga ariza berish tizimi.
8. JizPI arxiv tizimi.
9. JizPI bitiruvchilari platformasi.
10. Xalqaro aloqalar bo'yicha barqaror rivojlantirish maqsadlari platformasi (<https://sdg.jizpi.uz/>) kabi raqamlashtirilgan tizimlari va saytlari ishga tushirilib takomillashtirib borilmoqda. Shu bilan birga institutning rasmiy veb sayti (<https://jizpi.uz/uz/>) halqaro talabalar asosida tubdan qayta shakllantirib chiqildi.

Kelgusidagi ustuvor vazifalar to'g'risida

1. Yangi ochilgan 1-kurs bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yangidan ishlab chiqilgan malaka talablari asosida o'quv rejalari, fan dasturlarini yaratish.

2. Yil oxirigacha TOP-300 ro'yhatidagi oliy ta'lim tashkilotlarining dasturlari asosida 144 ta fanlarning o'quv dasturlari ishlab chiqish.

3. 1-kursga qabul qilingan magistratura guruhlarida o'qitiladigan fanlarni to'liq ingliz tilida dars berish tizimini joriy etish va o'quv me'yoriy xujjatlarni ingliz tilida tayyorlash

4. 2025-2026-o'quv yilidan xitoy tilini o'qitishni yo'lga qo'yish.

5. Energetika muxandisligi fakultetining 2 ta bakalavr ta'lim yo'nalishlari va 2 ta magistratura mutaxassisliklari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish.

6. Yangi va zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida 12 ta kafedralarning "Kafedra filial"larini ochish.

7. «Kasb egasi» dual ta'lim tizimi asosida 3 va 4 –kurs talabalarining 600 nafari ishlab chiqarishda amaliyoti o'tashi va ishlashi uchun sharoit yaratish.

8. Institut rahabiriyati, fakultet dekanlari, bo'lim boshliqlari va kafedra mudirlari 2025-2026-o'quv yilidan «Samaradorlik Uz » platformasiga kiritiladi va KPI tizimi joriy etiladi.

9. 2025-2026-o'quv yili bitiruvchilarini bandligini ta'minlash bo'yicha maqsadli reja ishlab chiqirish va reja asosida ishlarni amalga oshirish.

10. Institutga biriktirilgan 13 ta texnikumlar, biriktirilgan umumta'lim maktablariga o'quv, uslubiy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarda amaliy yordam ko'rsatish.

11. Kafedralarga xalqaro grantlar doirasida keltirilgan yangi laboratoriya jihozlari uchun o'quv-me'yoriy xujjatlar ishlab chiqishni yakunlash va laboratoriyadan o'quv, ilmiy maqsadlarda foydalanishni to'liq yo'lga qo'yish.

12. Yangi o'quv yilidan boshlab magistratura bitiruvchilarini magistrlik dissertatsiya ishlarini himoyasini to'liq, iqtidorli bakalavriat bitiruvchilarini diplom loyiha ishlari himoyasini soha korxonalarida o'tkazilishini yo'lga qo'yish.

13. Yangi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini ochishda iqtisodiyot tarmoqlarining kadrlarga bo'lgan real ehtiyojlarini hamda yangi yaratilayotgan ish o'rinlarining sohalar kesimida tahlil qilib, buyurtmalar portfelini shakllantirish hamda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga takliflar berish.

14. O'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratishda, sifat jihatdan yaxshilash uchun institutda ekspertlar guruhini shakllantirish.

15. Masofaviy ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun LMS platformasiga o'quv resurs va kontenentlarni joylash.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va vazifalar

2024-2025-o'quv yili davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va yuqori tashkilotlardan kelgan ko'rsatmalar institut jamoasi, fakultetlar, o'quv guruhlarida, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, tyutorlar hamda Ijtimoiy fanlar kafedrasi professor-o'qituvchilari jalb etilgan holda seminarlar, davra suhbatlari, maxsus kurslar tashkil etish orqali yetkazildi.

Institutda talaba-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, jumladan, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus bo'yicha institutda ko'plab ishlar amalga oshirilib borilayotganligi e'tiborga molikdir.

1-tashabbus doirasida Yoshlarning teatr san'atiga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida institutning "Ibrat" talaba teatr studiyasi faoliyat olib bormoqda. Talabalarning xohish va istaklaridan kelib chiqib, barcha fakultetlarda teatr jamoalari shakllantirilgan. 2024-2025-o'quv yili davomida fakultetlar teatr jamoalari tomonidan "Ota", "O'kinch", "Ular odam emas", "Ustoz", "Amir Temur – ulug' sarkarda", "Iztirob", "Suyunchi", "Bahodir", "Qarz", "Mening o'g'rigina bolam", "Davlat bolalari", "Zarang kosa", "To'da", "Shum bola", "Eng og'ir gunoh", "Gilam paypoq" hikoyalari asosida spektakllar sahnalashtirildi va turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda talaba-yoshlar, ixlosmandlar ixtiyoriga havola etildi.

2-tashabbus doirasida sport turlari bo'yicha 15 ta to'garaklar tashkil etilgan bo'lib, sport musobaqalari o'tkazildi. Institut professor-o'qituvchilari va talabalari o'rtasida mini futbol, voleybol, badminton, shaxmat va stol tennisi sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazildi. Institutda professor-o'qituvchilar va xodimlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish maqsadida institut sport yo'riqchisining kalendar rejasi ishlab chiqildi va institut rektori tomonidan tasdiqlandi. Institutda Rektor kubogi futzal sport turi bo'yicha barcha fakultetlarda musobaqalar o'tkazildi.

3-tashabbus doirasida institutning talabalar turar joyida Wi-Fi zonolari va kompyuter xonalari tashkil etilgan. "Internet va axborot resurslaridan foydalanishning usullari" mavzusida va boshqa shu kabi mavzularda 20 ta ma'rifiy uchrashuvlar o'tkazildi.

Talaba-yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida institutning Kompyuter va dasturiy injiring kafedrası qoshida "O'quv markazi" tashkil etilgan bo'lib, unga 500 dan ortiq talaba-yoshlar jalb etildi.

4-tashabbus doirasida "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish" bo'yicha har yili institutning jami talabalarini qamrab olgan "Zukko kitobxon" ko'rik tanlovi o'tkazilib kelindi. Ko'rik-tanlovning dastlab guruh, fakultet bosqichlari o'tkazildi. Kitobxonlikni targ'ib qilish maqsadida institut miqyosida bugungi kunga qadar 70 dan ortiq davra suhbatlari, uchrashuv va targ'ibot tadbirlari tashkil etildi. "Hamma o'qishi zarur bo'lgan 100 kitob" hamda "Bir haftada bir kitob" loyihasi asosida tyutorlar va dekan muovinlari tomonidan talabalar tomonidan mutolaa etilgan kitoblar bo'yicha suhbatlar tashkil etildi hamda kitobxonlikni keng yoyish orqali talaba-yoshlarda axloqiy sifatlarni yanada kuchaytirish ishlari olib borildi. Institut talabalari o'rtasida "Zukko kitobxon" tanlovining guruhlararo, kurslararo va fakultetlararo bosqichlari o'tkazildi.

5-tashabbus doirasida xotin-qizlarni kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash bo'yicha institutda bitiruvchi talabalarni ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida "Kar'era kuni" mehnat yarmarkasi tashkil etildi. Mehnat yarmarkasida korxona va tashkilotlar ishtirok etib, institutning bitiruvchi talabalari o'zlariga munosib ish o'rinlarini topish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Institutda tikuvchilik, to'quvchilik, til o'rgatish bo'yicha kurslar faoliyat yuritib kelmoqda. Institut xotin-qizlar maslahat kengashi qoshida "Qizlarjon" klubi tashkil etilgan. Uning a'zolari 86 nafar, "To'qimachilik mahsulotlarini qayta ishlash" kafedrası tomonidan "Tikuvchilik" kursi tashkil etilgan, ushbu kurs 15 ta tikuv mashinalari bilan ta'minlangan.

2024-2025-o'quv yili davomida 700 dan ortiq ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilib, talaba-yoshlarni ma'naviy barkamol, sog'lom, turli tahdidlarga qarshi immunitetga ega etib tarbiyalashga erishildi. Ko'plab sport – sog'lomlashtirish tadbirlari tashkil etilib, ularda talaba-yoshlarning faol ishtiroki ta'minlandi, g'olib jamoalar va talaba-yoshlar taqdirlandi.

Jumladan 2024-yil 25-30-noyabr kunlari sportning "Universal jang" sanati bo'yicha Turkiyaning Antaliya shahrida o'tkazilgan jahon chempionatida Qurilish muhandisligi fakulteti talabasi O'tkir Maxmudov kattalar o'rtasida 80 kg vazn toifasida munosib ishtirok etib, III o'rinni qo'lga kiritdi. Muaytay sport turi bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida institutimiz Transport muhandisligi talabasi Eshmo'minov Nurmuxammad faxrli III o'rinni, Jizzax viloyati Zomin tumanida sportning "Usmanov Combat Systems" turi bo'yicha Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston hamda O'zbekiston hamdo'stligida bo'lib o'tgan ochiq turnirda institutning Kimyo muhandisligi fakulteti talabasi Shukurullaeva E'zoza ham munosib ishtirok etib, kamar sohibasi bo'ldi.

Shuningdek, Jizzax politexnika instituti jamoasi 2025-yil iyun oyida o'tkazilgan "Dolzarb 90 kun" tadbiri doirasida "Talabalar kibersport o'yinlari - Farg'ona 2025" respublika chempionatida faol tashkilotchi bo'lganligi uchun Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan "Eng innovatsion tashkilotchi" nominatsiyasi bilan taqdirlandi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 17-apreldagi "Oliy ta'lim muassasalarida "Ma'rifat ulashib" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 122-sonli, 2024-yil 1-avgustdagi 275 sonli buyruqlari ijrosini ta'minlash maqsadida institutda "Ma'rifat ulashib" loyihasi doirasida 150 marotabadaan ortiq ma'naviy-madaniy tadbirlar tashkil etildi. Shuningdek, institutga biriktirilgan 42 ta mahallada joylashgan 111 ta maktab 24 ta kafedralarga taqsimlab berildi.

2024-yil 20-dekabr kuni Jizzax politexnika institutiga o'zbek xalqining sevimli adiblari, zamondosh shoir va yozuvchilarimiz, adabiyot darg'alari O'zbekiston

Yozuvchilar uyushmasi raisining o‘rinbosari, shoir, yozuvchi va tarjimon G‘ayrat Majidov hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, Ozarbayjon Yozuvchilar birligi faxriy a‘zosi, O‘zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi a‘zosi, shoir va tarjimon Gulbahor Said G‘ani hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Jizzax viloyati bo‘limi rahbari Mehribon Abdurahmonovalar ishtirokida tadbir o‘tkazildi. “Ma‘rifat ulashib” loyihasi doirasida taniqli adiblar hamda institutimiz jamoasi bilan G‘allaorol tumanidagi 52-umumiy o‘rta ta‘lim maktabiga tashrifi uyushtirildi.

Institutda 2024-2025-o‘quv yil davomida institutda tahsil imkoniyatlari cheklangan, nogironligi bo‘lgan, yetim, boquvchisini yo‘qotgan, kam ta‘minlangan oila farzandlari moddiy rag‘batlantirildi.

2024-yil oktabr oyida “Qalqon” jamoatchilik guruhining a‘zolari institutda talaba-yoshlar o‘rtasida tartib-intizomni saqlashda, ma‘naviy-ma‘rifiy, sport tadbirlari va jamoat ishlarida faol bo‘lgan 14 nafar talaba-yoshlariga 14 500 640 so‘m moddiy rag‘batlantirish;

2024-yil noyabr oyida 17-noyabr – Xalqaro talabalar kuni munosabati bilan 51 nafar faol talaba-yoshlarga 26 411 880 so‘m moddiy rag‘batlantirish;

2024-yil noyabr oyida Men terrorizmni qanday tushunaman?, “Jaholatga qarshi ma‘rifat, “Ajdodlarga munosib avlod bo‘laylik” mavzularidagi eng yaxshi ijodiy ishlarining (she‘rlar, insholar, rang-tasvir ishlari va boshqa) 9 nafar g‘oliblariga 4 660 920 so‘m moddiy rag‘batlantirish;

2024-yil noyabr oyida institutda o‘tkazilgan “Yil talabasi” tanlovining 16 nafar g‘oliblariga 39 000 000 so‘m moddiy rag‘batlantirish;

2024-yil noyabr oyida “Xo‘rozlar jangi”, “Arqon tortish”, “Eshak mindi” milliy sport turlari va xalq o‘yinlari bo‘yicha o‘tkazilgan musobaqada g‘olib bo‘lgan 24 nafar talaba-yoshlar 8 000 000 so‘m moddiy rag‘batlantirish;

2024-yil dekabr oyida 3-dekabr – Nogironlar kuni munosabati bilan 100 nafar imkoniyati cheklangan talaba-yoshlarga 51 788 000 so‘m moddiy rag‘batlantirish;

2025-yil 21-mart Navro‘z umumxalq bayrami va Ramazon xayiti bayrami munosabati bilan institutda tahsil olayotgan chin yetim, yetim va boquvchisini yo‘qotgan, “Yoshlar”, “Ayollar” daftariga kiritilgan, “Qalqon” jamoasi va iqtidorli 212 nafar talaba-yoshlar 109 790 560 so‘m moddiy rag‘batlantirildi.

“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17 -sentabrdagi 585-son qarori bo‘yicha institutda tahsil olayotgan ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayol talaba-yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida Jizzax viloyati hokimligi tomonidan 21 nafariga bir yillik shartnoma to‘lovlari to‘lab berildi.

Kelgusidagi vazifalar

1. Talabalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish borasida 5 ta muhim tashabbus ijrosi bo‘yicha fakultetlarda va kafedralarda tizimli ishlarni tashkil etish.

2. Yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish borasida kitobxonlik targ'ibotini yanada kuchaytirish.

3. Talabalar turar joyi va ijarada istiqomat qiladigan talabalar bilan ishlash holatini nazorat qilish borasida tyutorlar faoliyatini kuchaytirish.

4. Talaba-yoshlarning ijodiy, intellektual fikrlashini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Vatan taraqqiyotiga mening hissam" loyihasini amalga oshirish

5. Talaba-yoshlarda mamlakat tarixi va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish maqsadida "STEP BY STEP" sarguzashtli intellektual o'yinlar tashkil etish

6. "Yoshlarning ma'naviy-axloqiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi huquqbuzarlik, giyohvandlik, axloqsizlik kabi muammolarni bartaraf etishning samarali yo'llari" mavzusida targ'ibot tadbirlarini tashkil etish

7. Milliy qadriyat va urf-odatlarimizni o'zida jamlagan "Talabalik bahori" an'anaviy festivalini tashkil etish

8. "Tinch va farovon yurtga bayramlar yarashadi" shiori ostida O'zbekistonning tarixiy sanalari va umumxalq bayramlarini yuqori saviyada va keng miqyosda tashkillashtirish.

9. Talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarni tizimli yo'lga qo'yish bo'yicha fakultetlardagi kafedralar, jamoat tashkilotlari, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, guruh sardorlari hamda Talabalar turar joylari faoliyati samaradorligini o'rganish asosida tarbiya bo'yicha "Ustoz-shogird tizimidagi eng faol kafedra", "Eng yaxshi tyutor", "Eng namunali Talabalar turar joyi", "Eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi" ko'rik-tanlovlarini o'tkazish.

Ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilgan ishlar

Jizzax politexnika instituti profesor-o'qituvilarining 176 nafari ilmiy daraja va unvonga ega bo'lib, hozirda ilmiy salohiyat 41,9 foizni tashkil etmoqda. Institutda faoliyat olib borayotgan professor – o'qituvchilar tomonidan 2024 yilda 2 nafar DSc, 31 nafar PhD ilmiy darajasi olishgan bo'lsa, 2025-yilning shu kuniga qadar 1 nafar (DSc), 28 nafar PhD ilmiy darajasiga muyassar bo'lishdi.

2025-yilning o'tgan davri mobaynida 26 ta monografiya, 6 ta patent va 41 ta mualliflik guvohnomalari olindi. 2023-2025-yillar mobaynida institutda 450 nafar professor-o'qituvchilar tomonidan (Scopus, Web of Science) jurnallarda 318 ta va mahalliy jurnallarda 1432 ta ilmiy maqolalar nashr etilgan.

Institutda iqtidorli talabalar bilan ishlash, ustoz-shogird an'analari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, 2024-2025-o'quv yilida 1 nafar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi, 4 nafar talaba Beruniy nomidagi Davlat stipendiyasi va 1 nafar talaba Islom Karimov nomidagi Davlat stipendiyasi sovrindorlari bo'lishgan. 1

nafar talaba “Ulug‘bek vorislari” loyihalar tanlovining Respublika bosqichi g‘olibi, 2 nafar talaba “Yil talabasi” tanlovining Respublika bosqichida 1 o‘rin sohibi bo‘lishdi. Buxoro shahrida o‘tkazilgan Ijtimoiy, Iqtisodiy, Filologiya va Aniq fanlar bo‘yicha 1-Respublika fan olimpiadasida Jizzax politexnika instituti iqtidorli-talaba yoshlari faol ishtirok etib, 2 nafar talaba I va III-o‘rinni egalladilar.

Shu jumadan, muhandislik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirish, muhandis kadrlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, iqtidorli yoshlarni muhandislik sohasiga keng jalb qilish maqsadida “Muhandislik oyligi” doirasida Rektor kubogi - “Robotlar musobaqasi” robototexnika ko‘rik-tanloviga o‘tkazildi. “RoboSumo” hamda “Line folloving” yo‘nalishlarida tashkil etilgan mazkur ko‘rik-tanlovda jami 20 dan ortiq robototexnika sohasiga qiziquvchi ijodkor, izlanuvchan va yangilik yaratishni yoqtiradigan talaba-yoshlar ishtirok etdi.

Yurtimizni ilm-fan va muhandislik sohalarida dunyoga tanitish, yoshlarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, texnologiya sohasida ijobiy imidj shakllantirish hamda ayniqsa yoshlar orasida milliy faxr tuyg‘ularini uyg‘otish maqsadida Ginnes Rekordlar Kitobiga kiruvchi rekord qayd etish tashabbusida institutimizning 80 nafar muhandis talabalari bevosita ishtirok etdilar va mamlakatimizning muhandislik va robototexnika yo‘nalishida dunyo rekordi yangilashda munosib hissa qo‘shdilar.

O‘tgan o‘quv yilida institutimizda 3 ta halqaro va 2 ta respublika darajasidagi ilmiy anjumanlar o‘tkazilgan bo‘lib, mazkur anjumanlarga mahalliy mutaxassislar, sohaning malakali kadrlari bilan bir qatorda Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy, Belorussiya, Azerbayjon, Rossiya, Turkiya, Tojikiston, Qozog‘iston va boshqa xorijiy davlatlarning nufuzli oliy ta‘lim muassasalari va tashkilotlaridan olimlar va professor-o‘qituvchilari ham tashrif buyurishdi.

Ayniqsa, 2025-yil 18-19-may kunlari institutda “Qurilish materiallari va konstruksiyalari” kafedrası tomonidan tashkil qilingan «Yangi O‘zbekiston: Ilm qaldirg‘ochlari – 2025” IV Xaqaro simpoziumi respublika miqiyosida institutning BRENDI darajasiga ko‘tarilganini aytishim mumkin.

Soha-korxona-oliygoh tamoyili asosida ta‘lim, fan, ishlab chiqarish integratsiyasi amalga oshiriladi. Biriktirilgan 4 ta korxonalar ya‘ni “BYD Uzbekiston factori” MCHJ QK, “Bazalt Uzbekistan” klasteri, “Jizzak tekstil” MCHJ xorijiy korxonasi va Hududiy elektr tarmoqlari AJ Jizzax filiallarida bilan strategik hamkorlik **“xarajat-tadqiqot-mahsulot”** mexanizmi orqali ishlab chiqarish muammolari, yangi mahsulotlar, yangi texnologiyalarni jalb qilish kabi loyihalar amalga oshiriladi. Bunda oliygoh talabalari BMI, MD va doktorlik dissertatsiyalari ushbu loyihalardagi muammolarni yechishga qaratiladi.

2024/2025-o‘quv yili davomida institut xorijiy oliy ta‘lim muassasalari va korxonalar bilan umumiy hisobda 20 ta memorandum va shartnomalar imzoladi, va shuning 9 tasi ushbu o‘tkazilgan 3 ta ta‘lim forumlari doirasida imzolangan.

Institutning 78 nafar professor-o'qituvchilari xorijning top OTMLarida malaka oshirishdi. Jumladan, Hindistonning ITEC dasturi bo'yicha 9 nafar, Erasmus+ dasturidagi loyihalar doirasida 15 nafar, jami 24 nafar professor-o'qituvchilar va xodimlar xorijiy va grant dasturlari doirasida Hindiston, Italiya, Gresiya, Ruminiya va boshqa rivojlangan davlatlarda malaka oshirib qaytishdi. Shuningdek, shu vaqt davomida 27 nafar professor-o'qituvchilar xorijda dars mashg'ulotlari va seminarlar tashkil etishdi hamda konferensiyalar va seminarlarda qatnashishdi, umumiy hisobda 115 nafar institut professor-o'qituvchilari va xodimlar xorijda bo'lib qaytishdi.

Institutning 1 nafar talabasi Slovakiya hukumati tomonidan tashkil etilgan NSP tanlovida ishtirok etib, bir semestr davomida Slovakiyada ta'lim olish grantini yutib oldi va Slovakiya davlatiga 1 semestr davomida o'qish uchun yuborildi. Shuningdek, 2024/2025-o'quv yilining bahorgi semestrda 2 nafar talabalar Xitoy Xalq Respublikasining Nankin transport kasb-hunar institutiga, 1 nafar talaba Malayziyaning INTI xalqaro universitetiga akademik mobillik dasturi doirasida bir semestr davomida tahsil oldi.

Xorijdan 71 nafar professor-o'qituvchilar ta'lim jarayonlariga jalb etilgan bo'lsa bu o'quv yilidan boshlab, Yaponiyadan volontyor-o'qituvchi o'z faoliyatini boshlaydi.

Institutda Xitoy Xalq Respublikasining Changshu Texnologiyalar universiteti bilan hamkorlikda 2+2 qo'shma ta'lim dasturi amaliyotga joriy qilingan. Shuningdek, Toshkentdagi Turin politexnika instituti bilan Mashinasozlik texnologiyasi yo'nalishida 2+2 qo'shma ta'lim dasturi ham ochilgan.

Institutda Yevropa ittifoqining Erasmus+ fondi Salohiyatni oshirish dasturi doirasida "DEBSEUz - O'zbekistonda quyosh energetikasi bo'yicha bakalavrlar uchun maqsadli ta'lim dasturini ishlab chiqish", "TEX4FUTURE - O'zbekiston va Qozog'istonda tekstil mahsulotlari ishlab chiqarish kelajakdagi istiqbollari" hamda "GREENDT - Barqaror o'tish va ijtimoiy o'zgarishlar orqali atrof-muhit muhandisligi magistrlik darajasini amalga oshirish" loyihalarini amalga oshirib kelmoqda.

Ta'kidlash kerakki, institutning xalqaro reyting agentliklari doirasida qilinayotgan ishlar samarasi o'laroq 2023-yilda UI Greenmetric, THE Impact, THE WUR, QS Asia kabi nufuzli reyting agentliklarida o'z o'rniga ega bo'ldi, va bu jarayon 2025-yilda ham davom ettirilmoqda. Jumladan, joriy yilda institut THE Impact reytingida 1500+ o'rinni egalladi. Bundan tashqari xalqaro "HE Higher Education Ranking" agentligiga ko'ra dunyo OTMLari ichida 58-o'rinni egalladi.

Kelgusidagi rejalar:

- 2026-yilda ilmiy salohiyatni 45 % dan oshirish.
- Xo'jalik shartnomalar sonini 15%ga oshirish.
- Tijoratlashtirish tizimini jaddalashtirish.

- Amaldagi ilmiy kengash faoliyatini kengaytirish.
- Institut professor-o'qituvchilarini ilmiy loyihalarda ishtirok etish ulushini oshirish.
- Xirsh indeksi yuqori bo'lgan professor-o'qituvchilar sonini 15%ga oshirish.
- Scopus, Web of Science bazasida indeksatsiyalangan maqolalar sonini 150 taga yetkazish.
- Avtomobilsozlik ilg'or muhandislik maktabini ochish.
- Yaponiyadan 1 nafar volontyor o'qituvchini jalb etish.
- Institut professor-o'qituvchilarini xorijiy stajirovkalarga yuborish. Xususan, Hindistonning ITEC, Innovatsiya agentligining "Yosh olimlar" tanlovi va boshqa grant dasturlar doirasida.
- JICA, KOICA va Fulbrayt dasturlari doirasida 2025-2026-o'quv yili davomida institutga xorijiy o'qituvchi jalb qilish.
- Institut talabalarini Erasmus+ El-yurt umida hamda xorijiy grant dasturlariga yo'naltirish.
- Xitoy OTM lari bilan aloqalarni yuqori bosqichga olib chiqish maqsadida 2025/2026- o'quv yili mobaynida Shimoliy Xitoy texnologiya universitetiga 7 nafar institut professor-o'qituvchilari hamda talabalarini yuborish.
- Xalqaro reyting agentliklari reyting ko'rsatgichlaridagi institut nufuzini oshirish.

Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi vazifalar to'g'risida

Institutning 1-sonli TTJ binosi ta'mirlash maqsadida **1 mlrd. so'mlik** hamda asosiy binosi issiqlik tizimini yaxshilash maqsadida **700 mln. so'mlik** loyihalar bilan "Ochiq byudjet" portalida qatnashib g'olib deb topildi buning natijasida 1-sonli TTJ binosi ta'mirlandi, asosiy binoning issiqlik tizimi **80%** yangilandi.

Muqobil energiya manbalari shu vaqtga qadar **550 kVtli** quyosh panellari o'rnatilgan edi. O'tgan o'quv yilida qo'shimcha **75 kVtli** quyosh panellari o'rnatilib umumiy quvvati **625 kVtga** yetdi. Mazkur quyosh panellari joriy yil boshidan hozirgi vaqtga qadar **564 413 kVt** elektr energiya ishlab chiqardi. Buning natijasida institutning elekt energiyasi istemoli **8 oylik davr** mobaynida **407 mln so'm** iqtisod qilindi.

Institutning Muqobil energiyalarni tashkil etish ilmiy-amaliy markazida ishlab chiqarilgan **560 kVt** qiymati **3.4 mlrd. so'mlik** quyosh panellari xaridorlarga yetkazib berildi. Markazda yana **390 kVt** quyosh panellari mavjud.

Institut yashil makon umummilliy loyihasining har mavsumida faol ishtirok etib kelmoqda. 2024-yil kuz mavsumida **600 dona** daraxt ko'chatlari ekildi. 2025-yil baxor mavsumida **1200 dona** manzarali va mevali daraxt ko'chatlarini o'z ichiga olgan "Ziyolilar bog'i" tashkil qilindi.

Institutda yengil konstruksiyali qurilish qiymati **4.5 mlrd. so‘mlik** “Sanoat muhandisligi” ilg‘or muhandislik maktabi barpo etilib binoga **3.5 mlrd so‘m** miqdoridagi zamonaviy asbob uskunalar olib kelib o‘rnatildi.

Jizzax politexnika instituti va Sujou texnologiyalar universiteti hamkorligida institutda **“Innovatsion smart o‘quv auditoriyasi”** tashkil etildi. Loyiha qiymati **653 mln. so‘m** bo‘lib, shundan **66 mln. so‘m** qurilish ishlari uchun, **393 mln. so‘m** o‘quv jihozlari uchun, **194 mln. so‘m** bojxona va logistika xizmatlari uchun sarflandi. Mablag‘lar to‘lik hamkor OTM tomonidan amalga oshirildi.

Moddiy texnik bazani mustahkamlash maqsadida 2025-yilda **900 mln. so‘mlik** laboratoriya jihozlari, **423.8 mln. so‘mlik** kompyuter jamlanmasi, **251 mln. so‘mlik** texnik vositalar olib kelindi.

Kelgusidagi ustuvor vazifalar to‘g‘risida

1. Institutda yana qo‘shimcha 30 kVt quyosh panellarini o‘rnatish.
2. O‘quv auditoriyalar va institut hududini to‘liq videokuzatuv kameralari bilan qamrab olish.
3. Moddiy texnik bazani yanada kengaytirish.

Kun tartibidagi 2-masalani Kengash atroflicha o‘rganib chiqib, QAROR QILADI:

1. Institut rektori prof. A.Usmankulovning “Institutda 2023-2024-o‘quv yilida amalga oshirilgan ishlar natijalari va yangi 2024-2025-o‘quv yilida qo‘yiladigan vazifalar haqida”gi hisoboti qoniqarli, deb topilsin.

2. Soha prorektorlarga:

2.1. Bir hafta muddat ichida 2024-2025-o‘quv yili natijalari tahlil qilinib, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni yangi o‘quv yilida tugatishni ko‘zda tutgan holda har bir yo‘nalish bo‘yicha ish rejalari ishlab chiqilsin va tasdiqlashga kiritilsin.

2.2. Ish rejalari tuzishda e‘tiborni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llash, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirish, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish, institutga tashqi investitsiyalarni olib kelish, davlat byudjetidan moliyaviy ta‘minlanadigan ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, institutda tadbirkorlik ishlarini, ta‘lim sohasida marketing xizmatini, qo‘shimcha ta‘lim xizmatlaridan iborat pullik ta‘lim xizmati ko‘rsatish tizimini rivojlantirish va shu kabi dolzarb masalalarni yechishga qaratilsin.

3. O‘quv ishlar bo‘yicha prorektor va O‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i O.Xolmuratovga:

3.1. 1-kurs bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yangidan ishlab chiqilgan malaka talablari asosida o‘quv rejalari, fan dasturlarini yaratishni joriy yil 7-sentabrga qadar yakunlab, belgilangan tartibda tasdiqlash va o‘quv jarayoniga tadbqiq etishni tashkil etilsin.

3.2. Institut axborot resurs markazidagi mavjud o'quv va ilmiy adabiyotlarni xatlovdan o'tkazib, foydalanilayotgan asosiy o'quv adabiyotlarini tanqidiy qayta ko'rib chiqib, 2026-yil uchun institutda o'quv adabiyotlar yaratish rejasi tayyorlansin.

3.3. Institutda Avtomobilsozlik muhandislik maktabi bo'yicha xorij tajribasini o'rganish va o'quv me'yoriy ishlar jadallashtirilsin.

4. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor J.Abdunazarov, Ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i, iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'yicha mas'ul va xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'iga :

4.1.Xo'jalik shartnomalar soni 15% oshirilsin.

4.2. Institut professor-o'qituvchilarini Hindistonning ITEC, Innovatsiya agentligining "Yosh olimlar" tanlovi va boshqa grant dasturlar doirasida xorijiy stajirovkalarga yuborish qamrovi kengaytirilsin.

4.3. Institut talabalarini Erasmus+ El-yurt umida hamda xorijiy grant dasturlariga yo'naltirilsin.

4.4. Germaniyaning ASIIN akkreditatsiyalash agentligi bilan Energetika yo'nalishidagi institut ta'lim yo'nalishlari hamda mutaxassisliklarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish uchun tayyorgarlik ishlari olib borilsin.

5. Fakultet dekanlariga:

5.1. Qurilish materiallari va konstruksiyalari, Yo'l muhandisligi, Umumtexnika fanlari, Elektr texnologiyalari kafedralarida institutning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan barpo etilgan laboratoriya xonalarini jihozlab, yangi o'quv yilidan o'quv va ilmiy ishlar jarayonida foydalanish to'liq yo'lga qo'yilsin.

5.2. Har bir mutaxassis chiqaruvchi kafedra bittadan nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlikda bitta auditoriyani jihozlasin.

5.3. Har bir fakultetda bittadan ingliz tili guruhi tashkil etilsin.

5.4. Institutga qabul qilingan barcha talabalar bilan odob-axloq kodeksi, ichki tartib-qoidalar tanishtirilsin.

ESHITILDI:

Kun tartibidagi turli masalalar yuzasidan O'quv ishlari bo'yicha prorektor M.Ochilov so'zga chiqib quyidagi masalalarga to'xtalib o'tdi:

- Mutaxassis tayyorlovchi kafedralar va fakultetlararo kafedralar tomonidan 1-kurs bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun fan dasturlarini belgilangan tartibda ishlab chiqilganligi, hamda yuqori tajribaga ega professor-o'qituvchi va ishlab chiqarish xodimlari tomonidan ijobiy xulosa olingan to'g'risida ma'lumot berib, ushbu fan dasturlarini ko'rib chiqib, Kengash a'zolaridan belgilangan tartibda tasdiqlab berishlarini so'radi.

- Navbatdagi masala 2025-2026-o'quv yilida tahsil olishi rejalashtirilgan bakalavriatning kunduzgi va sirtqi ta'lim yo'nalishlari, magistratura

mutaxassisliklarining barcha kurslari uchun ishchi o'quv rejalari asosida ishlab chiqilgan o'quv jarayoni grafigini ko'rib chiqish va tasdiqlash masalasi kiritildi.

- Keyingi masala Kafedralarda kafedra mudirlarining bildirishnomalari asosida 3 yil va undan ortiq ish stajiga ega assistentlarga 250 soatgacha bo'lgan miqdorda ma'ruza soatlarini berish bo'yicha bo'lib, mazkur masala bo'yicha Kengash a'zolarini fikr mulohazalarini va o'z munosabatlarini bildirishlarini so'radi.

- Institutda o'quv-me'yoriy hujjatlarni elektron aylanishi va tasdiqlanishi bo'yicha elektron platforma takomillashtirish bo'yicha ishlar davom etayotganligi bo'yicha axborot berdi. Elektron platformada o'quv jarayoni bilan bog'liq me'yoriy hujjatlar: ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning o'quv va ishchi o'quv rejalari, kafedralarning shtatlar taqsimoti, o'quv yuklamasi, o'quv soatlari taqsimoti, adabiyot yaratish rejasi, malaka oshirish va stajirovka rejasi, kafedra professor-o'qituvchilarining shaxsiy ish rejalari hamda o'quv-me'yoriy hujjatlari (fan dasturi, sillabus, ma'ruzalar matni, uslubiy ko'rsatma (amaliy mashg'ulotlar uchun, kurs ishi (loyiha) uchun, hisob-grafik ishlar uchun, mustaqil ta'lim uchun) elektron aylanadi va mas'ullar tomonidan tasdiqlanadi. Hujjatlar platformada QR kod bilan tasdiqlanib, imzolangan hujjatlar bilan teng kuchga ega bo'ladi.

- 2024-2025-o'quv yilida hisob-grafik ishlari mavjud fanlar yuklamasiga fanni o'qitish sifat darajasini oshirish maqsadida, har bir talaba uchun hisob grafik ishlarini tushuntirish, tekshirishga bir soatdan ajratish maqsadga muvofiqligi aytiladi.

- Sirtqi ta'lim shakli talabalari o'quv yuklamalarini hisoblashda Oliy ta'lim muassasasi professtor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlarini belgilash Qoidalariga ko'ra bir marta oraliq nazoratga har bir talaba uchun 0,2 soat, yakuniy nazoratga har bir talaba uchun 0,3 soat, har bir akademik guruhga talabalarning nazorat ishlariga taqriz yozishga 1,5 soatdan ajratilishi aytib o'tildi.

SO'ZGA CHIQDILAR:

Dots. A.Berdikulov, dots. I.Abbazov, dots. O.Berdiyev, prof. J.Xamidov, dots. S.Djiyanboyev, dots va Kengash raisi A.Usmankulov ushbu masala yuzasidan o'z fikr mulohazalarini savol javob orqali bildirdilar.

Institut Kengashi ushbu masalani atroflicha o'rganib chiqib, QAROR QILADI:

1. O'quv ishlari bo'yicha prorektor dots. M. Ochilovning 2025-2026-o'quv yili uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining 1-kurs o'quv rejalari, o'quv jarayoni grafiklarini va kafedralar bo'yicha o'quv yuklamalarini tasdiqlash hamda 3 yildan ortiq ilmiy-pedagogik ish staji mavjud, biroq ilmiy daraja

va ilmiy unvonga ega bo'lmagan professor-o'qituvchilarga 250 soatgacha ma'ruza o'qish uchun ruxsat berish" haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kafedra mudirlariga:

- OTFIVning 2023-yil 9-iyuldagi 259-sonli buyrug'ining ijrosini to'laqonli ta'minlash maqsadida tayanch OTMlar bilan 1-kurs bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari va o'quv rejalari hamda o'quv dasturlarini talabalar mobilligini saqlagan holda tayyorlash va tasdiqlash ishlarini yakuniga yetkazish;

3. O'quv jarayoni grafigiga 1-kurslarning tasdiqlangan namunaviy o'quv rejalari asosida o'zgartirish va takliflar kiritish o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i O.Xolmurotovga yuklatilsin.

4. O'quv yuklamalaridagi ma'ruza soatlari miqdorlaridan kelib chiqqan holda kafedra mudirlarining takliflariga ko'ra ro'yxatdagi o'qituvchilarga 250 soatgacha ma'ruza o'qish uchun ruxsat berilsin va o'rnatilgan tartibda ularning shaxsiy ish rejalari rasmiylashtirishni nazorati fakultet dekanlari zimmasiga yuklatilsin.

5. Hisob grafik ishlari mavjud fanlar yuklamasiga fanni o'qitish sifat darajasini oshirish maqsadida, har bir talaba uchun hisob grafik ishlarini tushuntirish, tekshirishga har bir talabaga bir soatdan ajratilsin.

6. Sirtqi ta'lim shakli talabalari o'quv yuklamalarini hisoblashda Oliy ta'lim muassasasi professtor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlarini belgilash Qoidalariga ko'ra bir marta oraliq nazoratga har bir talaba uchun 0,2 soat, yakuniy nazoratga har bir talaba uchun 0,3 soat, har bir akademik guruhga talabalarning nazorat ishlariga taqriz yozishga 1,5 soatdan ajratilsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'quv ishlari bo'yicha prorektor zimmasiga yuklatilsin.

ESHITILDI:

Kun tartibidagi 3.5-masala yuzasidan institut Registrator ofisi boshlig'i Dilshod Xamroqulov so'z oldi va "Talabalar turar joyi" Nizomiga kiritilgan o'zgartirishlarni o'qib eshittirdi ushbu nizomga ko'ra O'zbekiston Vazirlat Mahkamasining 14.08.2023-yildagi 376-sonli qarori asosida institut Talabalar turar joyiga atalabalarni qabul qilishda "Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilari, ko'z kasalliklari bo'yicha I va II guruh nogironligi bo'lgan chen yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va vasiylikka olingan talabalar uchun 100 %, I va II guruh nogironligi bo'lgan "Ijtimoiy himoya yagona reystri", "Temir daftar" va "Ayollar daftari" ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlari hamda "Yoshlar daftarida" turadigan talabalar uchun 50 %, bir oiladan bakalavriat

bosqichi kunduzgi ta'lim shaklida ikki yoki undan ortiq to'lov-shartnoma asosida o'qiyotgan oilalar farzandlari, xalqaro fan olimpiadalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o'tkaziladigan respublika fan olimpiadalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan talabalar, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yinining respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan, "Yil talabasi" va "Talabalar teatr studiyalari" ko'rik-tanlovlarining respublika bosqichi g'oliblari, Talabalar turar joyi kengashining raisi, qavat sardori bo'lgan talabalarni 25 % to'lovlardan ozod qilish va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.06.2025-yildagi PF-91-sinli farmoni asosida eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqib, institut talabalar turar joyida yashovchi talabalarga 2025-2026-o'quv yili uchun **210 000** (ikki yuz o'n ming) so'm to'lov miqdorini tasdiqlab berishni kengash a'zolaridan so'radi.

SO'ZGA CHIQDILAR:

Fakultet dekanlari dots. A.Berdiqulov, prof. J.Xamidov, dots. O.Pardayev, dots. M.Mirzabekov, kasaba uyushmasi raisi X.Ulug'murodov, moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor Y.Rajabovlar ushbu masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini savol javob orqali bildirdilar.

Kun tartibidagi masalani o'rganib, Kengash

QAROR QILADI:

1. Institut talabalar turar joyida istiqomat qiladigan talabalarga Talabalar turar joyi uchun to'lov miqdori va imtiyozlarni tayinlash to'g'risida Registrator ofisi boshlig'i Dilshod Xamroqulovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Institut talabalar turar joyida istiqomat qiladigan talabalarga "Talabalar turar joyi" uchun to'lov miqdori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.06.2025-yildagi PF-91-sinli farmoni asosan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqib, institut talabalar turar joyida yashovchi talabalarga 2025-2026-o'quv yili uchun **210 000** (ikki yuz o'n ming) so'm etib belgilansin. Mas'ul: I.Islomov, Talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i. Muddat 2025-2026-o'quv yili davomida.
3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish institut Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor S.Eshbekova zimmasiga yuklatilsin.

ESHITILDI.

Kun tartibidagi 3.6-masala yuzasidan Kengash kotibi E.Urishbayev so'z oldi va Kengashga taqdim etilgan institut Transport vositalari muhandisligi kafedrası professori I.B.Askarov tomonidan tayyorlangan "Kreativ yondashuv asosida

talabalarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasi” nomli monografiyasi bilan tanishtirdi.

Monografiya unga qo'yilgan barcha talablarga javob berishini ta'kidlab, Kengashga taqdim etilgan hujjatlar to'g'risida gapirdi hamda Kengash a'zolaridan ushbu monografiyani tasdiqlash va chop etishga tavsiya berish bo'yicha fikr va mulohazalar bildirishlarini so'radi.

Kafedraning bayonnomasi va taqdim etilgan taqrizlarni Kengash a'zolariga o'qib eshittirdi.

SO'ZGA CHIQDILAR:

Dots. A.Berdiqulov, prof. J.Hamidov, prof. Sh.Umarov, dots. O.Berdiyev, dots. M.Mirzabekov, dots. J.Nasriddinov va Kengash raisi A.Usmankulovlar ushbu masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini savol-javob orqali bildirdilar.

Kun tartibidagi masalani o'rganib Kengash QAROR QILADI:

1. Jizzax politexnika instituti Transport vositalari muhandisligi kafedrası professori I.B.Askarov tomonidan tayyorlangan “Kreativ yondashuv asosida talabalarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasi” nomli monografiyani tasdiqlash uchun tavsiya etish to'g'risida Kengash kotibi E.Urishbayev axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jizzax politexnika instituti Transport vositalari muhandisligi kafedrası professori I.B.Askarov tomonidan tayyorlangan “Kreativ yondashuv asosida talabalarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasi” nomli monografiya tasdiqlansin va chop etishga tavsiya etilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish institut Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori J.Abdunazarov zimmasiga yuklatilsin.

EShITILDI:

Kun tartibidagi masala yuzasidan Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor J.A.Abdunazarov so'z oldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ilmiy va innovation faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 19-apreldagi 222-son qarorining 1-ilovasi “Akademik harakatchanlik dasturini shakllantirish, amalga oshirish, moliyalashtirish va monitoring qilish tartibi to'g'risida”gi Nizomida belgilangan talablarga muvofiq tashkil etilgan tanlovga Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish texnologiyasi kafedrası assistenti B.N.Sharopovning **“Paxtani havodan**

ajratib olishda aerodinamik qarshilikni va paxta shikastlanishini kamaytiruvchi takomillashtirilgan intensiv separator konstruksiyasini asoslash” nomli loyihasi taqdim etilayotganligi haqida ma’lumot berdi. Ushbu loyihani tanlovga taqdim etish uchun kengash xulosasi so’ralgan.

Loyiha bajaruvchisi B.N.Sharopov kengash a’zolarini loyihaning asosiy yo’nalishlari va bosqichlari bilan tanishtirdi.

Kengash a’zolari loyihani tanlovga taqdim etishni qo’llab-quvvatladilar.

SO’ZGA CHIQQILAR:

Dos. F.Egamberdiev, dos. S.Ro’ziboev, dos. O.Berdiev, dos. G’.Egamnazarov, prof. A.Usmankulovlar ushbu masala yuzasidan o’z fikr-mulohazalarini savol-javob orqali bildirdilar.

Kun tartibidagi masalani o’rganib Kengash QAROR QILADI:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor J.A.Abdunazarovning B.N.Sharopov rahbarligidagi “Paxtani havodan ajratib olishda aerodinamik qarshilikni va paxta shikastlanishini kamaytiruvchi takomillashtirilgan intensiv separator konstruksiyasini asoslash” nomli loyiha muhokamasi to’g’risidagi ma’lumoti ijro uchun qabul qilinsin.

2. B.N.Sharopovning “Paxtani havodan ajratib olishda aerodinamik qarshilikni va paxta shikastlanishini kamaytiruvchi takomillashtirilgan intensiv separator konstruksiyasini asoslash” mavzusidagi loyihasini 2025-yilga mo’ljallangan “Akademik harakatchanlik” dasturi doirasida tashkil qilingan tanlovida qatnashish uchun taqdim etilsin.

3. Ushbu qarorni bajarilishini nazorat etish Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor J.A.Abdunazarovning zimmasiga yuklatilsin.

ESHITILDI:

Kun tartibidagi 3.8-masala yuzasidan Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor J.Abdunazarov Eron Islom Respublikasi Xo’ja Nosiriddin Tusi Texnologiya Universiteti hamda “Hamta Tadbir” korxonasi bilan imzolangan trilateral shartnomaga muvofiq, Jizzax politexnika instituti Kibersport fakulteti Radioelektronika kafedrasi tarkibida “Jizzax Robotlar laboratoriyasi” (“Jizzakh Aerial Robotics Lab”)ni tashkil etishni taklif etdi.

Shuningdek, mazkur laboratoriyaga mas’ul shaxs sifatida Radioelektronika kafedrasi mudiri Qarshiboyev Sharofni tayinlash, xorijiy hamkorlar bilan hamkorlik aloqalarini yo’lga qo’yish va muzokaralar olib borish uchun koordinator etib Xalqaro hamkorlik bo’limi boshlig’i Muhridin Eshqulovni tayinlashni taklif etdi.

Eron Islom Respublikasi Xo'ja Nosiriddin Tusi Texnologiya Universiteti hamda "Hamta Tadbir" korxonasi bilan imzolangan trilateral shartnomaga muvofiq, Jizzax politexnika instituti Kibersport fakulteti Radioelektronika kafedrası tarkibida "Jizzax Robotlar laboratoriyasi" ("Jizzakh Aerial Robotics Lab")ni tashkil etish masalasi ko'rib chiqildi.

SO'ZGA CHIQDILAR:

Dots. A.Berdiqulov, dots. Sh.Xaqberdiyev, prof. J.Hamidov, dots. S.Ro'ziboyev, dots. J.Nasriddinov va Kengash raisi A.Usmankulovlar ushbu masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini savol-javob orqali bildirdilar.

Kun tartibidagi masalani o'rganib, Kengash

QAROR QILADI:

1. Ilmiy ishlar va innovatsion bo'yicha prorektor J.Abdunazarovning Eron Islom Respublikasi Xo'ja Nosiriddin Tusi Texnologiya Universiteti hamda "Hamta Tadbir" korxonasi bilan imzolangan trilateral shartnomaga muvofiq, Jizzax politexnika instituti Kibersport fakulteti Radioelektronika kafedrası tarkibida "Jizzax Robotlar laboratoriyasi" ("Jizzakh Aerial Robotics Lab")ni tashkil etish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Islom Respublikasi Xo'ja Nosiriddin Tusi Texnologiya Universiteti hamda "Hamta Tadbir" korxonasi bilan imzolangan trilateral shartnomaga muvofiq, Jizzax politexnika instituti Kibersport fakulteti Radioelektronika kafedrası tarkibida "Jizzax Robotlar laboratoriyasi" ("Jizzakh Aerial Robotics Lab")ni tashkil etilsin.

3. Mazkur laboratoriyaga mas'ul shaxs etib Radioelektronika kafedrası mudiri Qarshiboyev Sharof tayinlansin.

4. Xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish va muzokaralar olib borish uchun koordinator etib Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i Muhriddin Eshqulov tayinlansin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor zimmasiga yuklatilsin.

ESHITILDI:

Kun tartibidagi masala yuzasidan Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor J.A.Abdunazarov so'z oldi. Ushbu loyiha doirasida binolarning yong'inga chidamliligini oshirishda, elektrokommunikatsiya, issiqlik tizimlarida va yong'inga qarshi to'siqlarda yong'in xavfini kamaytirish maqsadlarda qo'llaniladi. Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan bazalt xomashyosi asosida yangi innovatsion

mahsulot va texnologiyalar yaratiladi. Loyiha ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida bajariladigan amaliy tadqiqotlar tanlovi e'lon qilingan.

Mazkur tanlovga loyiha talabnomalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 9-martdagi 133-son qarorida belgilangan talablarga muvofiq "Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik fanlari" hamda "Texnika fanlari" yo'nalishlari bo'yicha qabul qilinadi. Nizomida belgilangan talablarga muvofiq tashkil etilgan tanlovga Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish texnologiyasi kafedrasini t.f.d. professor v.b. I.Abbazovning **"Binolarda sodir bo'layotgan baxtsiz hodisalarni oldini oladigan, olovbardosh xususiyatli issiqlik izolyatsion shnur olish"** nomli loyihasi taqdim etilayotganligi haqida ma'lumot berdi. Ushbu loyihani tanlovga taqdim etish uchun kengash xulosasi so'ralgan.

Loyiha bajaruvchisi I.Z.Abbazov kengash a'zolarini loyihaning asosiy yo'nalishlari va bosqichlari bilan tanishtirdi.

Kengash a'zolari loyihani tanlovga taqdim etishni qo'llab-quvvatladilar.

SO'ZGA CHIQQILAR:

Dos. F.Egamberdiev, dos. S.Ro'ziboev, dos. O.Berdiev, dos. G'.Egamnazarov, prof. A.Usmankulovlar ushbu masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini savol-javob orqali bildirdilar.

Kun tartibidagi masalani o'rganib Kengash QAROR QILADI:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor J.A.Abdunazarovning Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish texnologiyasi kafedrasini t.f.d. professor I.Abbazov rahbarligidagi **"Binolarda sodir bo'layotgan baxtsiz hodisalarni oldini oladigan, olovbardosh xususiyatli issiqlik izolyatsion shnur olish"** nomli loyiha muhokamasi to'g'risidagi ma'lumoti ijro uchun qabul qilinsin.

2. I.Abbazovning **"Binolarda sodir bo'layotgan baxtsiz hodisalarni oldini oladigan, olovbardosh xususiyatli issiqlik izolyatsion shnur olish"** mavzusidagi loyihasini 2026-2027-yillarga mo'ljallangan "Akademik harakatchanlik" dasturi doirasida tashkil qilingan tanlovida qatnashish uchun taqdim etilsin.

3. Ushbu qarorni bajarilishini nazorat etish Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor J.A.Abdunazarovning zimmasiga yuklatilsin.

ESHITILDI:

Kun tartibidagi 3.10-masala yuzasidan Arxitekturaviy loyihalash kafedrası mudiri E. Quldashev soʻzga chiqib, institutda Arxitekturaviy loyihalash kafedrası qoshidagi “Ijodiyot” oʻquv-ilmiy markaz nizomining masmun-mohiyati bilan tanishtirib “**NIZOMI**”ni tasdiqlash uchun Kengashga taqdim etib, ishlab chiqilgan Nizom boʻyicha tavsiya, fikr va mulohazalar bildirishlarini soʻradi.

SOʻZGA CHIQDILAR:

Dots. A.Berdiqulov, prof. J.Hamidov, dots. Gʻ.Egamnazarov, dots. O.Berdiyev, dots. S.Djiyanboyev, dots. J.Nasriddinov va Kengash raisi A.Usmankulov ushbu masala yuzasidan oʻz fikr-mulohazalarini savol-javob orqali bildirdilar. Kengash aʼzolari tominidan “Ijodiyot” markaz nizomi muhokama qilinib, unga qoʻyilgan barcha talablarga javob berishini taʼkidlab, Kengash aʼzolariga taqdim etilgan hujjatlarni oʻrganib chiqib, “Ijodiyot” markaz “**NIZOMI**”ni tasdiqlashga tavsiya berish boʻyicha fikr va mulohazalar bildirildi.

Kun tartibidagi masalani oʻrganib Kengash

QAROR QILADI:

1. Institut Arxitekturaviy loyihalash kafedrası mudiri E. Quldashevning kafedra qoshida “Ijodiyot” oʻquv-ilmiy markazi toʻgʻrisidagi Nizomini tasdiqlash yuzasidan bergan axboroti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Jizzax politexnika instituti Arxitekturaviy loyihalash kafedrası qoshida “Ijodiyot” oʻquv-ilmiy markazning **NIZOMI** tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish institutning Oʻquv ishlari boʻyicha prorektor M.Ochilov zimmasiga yuklatilsin.

ESHITILDI:

Kun tartibidagi masala yuzasidan Ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektor J.Abdunazarov “Institutda mustaqil izlanuvchilikka qabul qilish, ilmiy tadqiqot mavzusini tasdiqlash va ilmiy rahbar tayinlash toʻgʻrisida” axborot berdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-dekabrda “Oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan oʻtkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 365-sonli qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-mayda “Oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 304-sonli qarorining 14-bandi ijrosini taʼminlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyulda 606-son qarori (Talabgorlar OTM yoki ITM rahbarining har chorakda 5-mart, 5-iyun, 5-sentabr va 5-dekabrda eʼlon qilinadigan buyrugʻi bilan mustaqil izlanuvchilikka rasmiylashtiriladilar)ga asosan mustaqil izlanuvchilikka qabul komissiyasi tashkil etildi. Rejaga muvofiq 2025-yil IV chorak uchun mustaqil izlanuvchilikka, 13.00.05 - “Kasb-hunar taʼlimi

nazariyasi va metodikasi”, 05.06.02 - “To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish”, 05.08.06 - “G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish” va 05.09.05 - “Qurilish materiallari va buyumlari” ixtisosliklariga talabgorlardan hujjatlar Nizom talablari asosida qabul qilinganligini aytib o‘tdi.

Yuqoridagilarni e‘tiborga olib mustaqil izlanuvchilikka qabul qilingan nomzodlarning dissertatsiya mavzulari va ilmiy rahbar (konsultant)larni tasdiqlab berishlarini so‘rayman.

SO‘ZGA CHIQDILAR:

Prof. J.Hamidov, dots. I.Abbazov, dots. Sh.Suvanqulov, t.f.f.d.G.Mamayev, dots. G‘.Egamnazarov, dots. F.Egamberdiyev, dots. O.Berdiyev, dots.Sh.Musayev va Kengash raisi A.Usmankulov ushbu masala yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini savol-javob orqali bildirdilar.

Kun tartibidagi masalani Kengash atroflicha o‘rganib chiqib, QAROR QILADI:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor J.Abdunazarovning Institutda mustaqil izlanuvchilikka qabul qilish, ilmiy tadqiqot mavzusini tasdiqlash va ilmiy rahbar tayinlash to‘g‘risidagi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
2. Mustaqil izlanuvchilikka qabul qilingan nomzodlarning ilmiy mavzulari va ilmiy rahbar (konsultant)lari quyida keltirilgan tartibda tasdiqlansin:
 - 2.1. 05.06.02 - “To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish” ixtisosligiga Tojimurotov Sardor Ilhom o‘g‘li; mavzusi: Pnevмомеханик yigirish mashinasi diskret barabanchasini, takomillashtirib ip sifatini oshirish. Ilmiy rahbar: t.f.f.d., dots., Kazakova Dilafruz Erkinovna;
 - 2.2. 05.06.02 - “To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish” ixtisosligiga Sharopov Bobir Nabijon o‘g‘li; mavzusi: Tola miqdorini oshirish uchun jinish uskunasiga rolikli moslama o‘rnatish orqali takomillashtirish. Ilmiy rahbar: t.f.f.d. dots., Abbazov Ilxom Zapirovich;
